

CHET TILIDA KASBIY SOHAVIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIKANING AHAMIYATI

A. Murtazayeva¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada kasbiy ta'limda uzoq vaqt mobaynida pedagogik-psixologik "bilim" asosiy yo'nalish tarzida gnostik pozitsiyada bo'lganligi va bunday yondoshuvda o'qiyotganlarda tizimlashtirilgan bilimlarni shakllantirish barobarida havola etish ta'limning asosiy vazifasi deb qaralayotgan shuningdek, pedagogik ilmlar tasnifida aynan chet tilida kasbiy sohaviy mutaxassis-kadr kompetensiyasi masalasi o'z dolzarbligi, katta qiziqish uyg'otayotganligi va ta'lim jarayonini tashkil qilish, uning samaradorligini ta'minlash uchun muhimligi va zaruriyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompetentlik, ko'nikma mashqlari, nutq faoliyati, pedagogik faoliyat, ta'lim komponentlari, o'quv-biluv.

doi: <https://doi.org/10.2024/a49ezp15>

Kirish

Jahonda professional ta'lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv va zamonaviy usullar asosida loyihalash, amalga oshirish va rivojlantirishning ilmiy asoslangan tizimini yaratish dolzarbligicha qolmoqda. Xususan, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish va rahbar pedagoglarni kasbiy sohaviy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirishga oid tadqiqotlar olib borilayotgan Princeton University (AQSH), Manchesters University (Angliya), National Advice on Pedagogical Technology (Angliya), Belfield Pedagogical University (Germaniya), Ta'lim texnologiyalari navigatori axborot-metodik markazi (Rossiya) va Seoul Cyber University (Janubiy Koreya) kabi nufuzli ilmiy tadqiqot ta'lim markazlarida salmoqli amaliy natijalarga erishilgan. (K.Nabiyeva.,2021). Chet til o'zining mazmuni, maqsadi, vazifalari, uslublari, vositalari, sharoiti (qayerda, qancha vaqt ajratilgan, qanday jihozlangan) bilan ham boshqa fanlardan farq qiladi. Chunonchi, mazkur predmet til o'rganuvchilarda alohida kommunikativ bilim, ko'nikma va malakalarni shakllanishini talab etadi. Chet tilni egallash talabning gumanitar ta'limi darajasini oshiradi va uni madaniyatlar dialogida ishtirok etishga tayyorlaydi. Ma'lumki, uzluksiz ta'limning DTSda til va nutq kompetensiyalari barcha bosqichlar uchun ishlab chiqilgan. Shu o'rinda "kompetensiya" so'ziga izoh berib o'tamiz. Mazkur atama olimlar nazdida, ishlarida turlicha talqin etilgan, masalan, Kompetensiya – xabardorlik, layoqat, qobiliyat va b. bilan izohlangan. O'quvchi/ talaba (quyida – talaba) chet til o'rganish jarayonida nutq faoliyati yuritish bilan mashg'ul bo'ladi. Mazkur jarayonda til o'rganuvchi uchun yot bo'lgan grammatik va boshqa lisoniy hodisalarga duch keladi. Masalan, ingliz tilidagi so'zlarning talaffuzi, gap strukturasi, artiklning qo'llanishi, fe'l zamonlarining yasalishi va boshqalar talabaga jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi. Bu vaziyatda sodda qoidalardan foydalaniladi. Bundan tashqari, chet til o'quv predmetining afzalligi shundan iboratki, u o'zida barcha fanlar ma'lumotlarini saqlaydi,

¹ Murtazayeva Aisafar Bazarkulovna, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Ingliz Filologiyasi Fakulteti, Ingliz tili nazariy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi

qayta ishlab chiqadi, mustahkamlaydi va uzatadi. Demak, chet til fanida talabalarga lingvistik bilimlar sistema holda emas, balki nutq yuritish uchun zaruriylik va yetarlilik qonuniyatiga binoan beriladi. Ta'lim mazmuni komponentlaridan avtomatlashgan ko'nikmalarni egallash "zarur" bo'lsa, topshiriqlar miqdori va ularning matnga munosabati ta'limda "yetarli" hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili

Kasbiy sohaviy kompetentlikni turlicha izohlash hollari yuzaga keldi. Ular:

- ma'lum bir mehnat funksiyasini bajarish qobiliyati;
- "malaka", "mahorat" kabi inson ko'nikmalari (A.K.Makarova);
- kasbiy ma'lumotlilik darajasi;
- insonning tajribasi va individual qobiliyati, uning o'z bilimi va malakasini oshirib borishga intilishi, uning ishga ijodiy yondashuvi va o'z ishiga mas'uliyati (B.S.Gershunskiy);
- kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish (O.A.Abduqudusov, H.F.Rashidov);
- bilim, mahorat, o'ziga xoslik va shaxsning o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishdagi qobiliyati (V.A.Sitarov);
- shaxsning tajribasi, ma'lumotining ijtimoiy yo'naltirilganligi, insonning ma'lum bir maqsad yo'lidagi amaliy faoliyati natijalari;
- kasbiy bilimlarini hayotda samarali qo'llashi kabi shaxsning o'ziga xos sifatlari va kompetentligi (L.N.Ponamarev);
- zamonaviy davrda pedagogik ilmlar tasnifida aynan mutaxassis-kadr kompetensiyasi masalasi o'z dolzarbligi, katta qiziqish uyg'otayotganligi va ta'lim jarayonini tashkil qilish, uning samaradorligini ta'minlash uchun muhimligi va zaruriyatini namoyon etmoqda. Faol va harakatchan, tashabbus ko'rsatib, o'zining professional maqsadlarini aniq anglaydigan, innovasion tafakkurga ega va ta'limda yangiliklarni amalga oshirishga tayyor o'qituvchi kompetensiyasini shakllantirish va ta'minlash, bu masalasini ta'lim va tarbiya jarayonining eng muhim unsurlaridan biri ekanligini targ'ib qilish taqozo etilmoqda. (Kadirova M. T., 2020).

Tadqiqot metodologiyasi

Kasbiy sohaviy ta'limda uzoq vaqt mobaynida pedagogik-psixologik "bilim" asosiy yo'nalish tarzida gnostik pozisiyada bo'lgan. Bunday yondoshuvda o'qiyotganlarda tizimlashtirilgan bilimlarni shakllantirish barobarida havola etish ta'limning asosiy vazifasi deb qaralgan. (Doniyorov R., 2017).

Real voqelik elementlarining sub'yekt ongida aks etishi bilim hamda kuchli qiziqish hisobiga shaxsning atrof-muhitda sodir bo'layotgan voqelikka faol munosabatda bo'lishi va ijtimoiy amaliyot davomida hayotiy tajribani to'plash barobarida atrof-muhit bilan aloqani o'rnatish jarayoni esa bilish deyiladi. Bilimlarni shakllantirish jarayoni deganda shaxs tomonidan xotira orqali o'quv-biluv materiallarini idrok (qabul) qilish, uni anglash va mazmun-ma'nosini tushunish, xotirada saqlash qo'llash bilan, bilimlarni qo'llash esa ilgari qabul qilinganlarni tizimlashtirish, aniqlashtirish va umumlashtirish bilan chambarchas bog'liq jarayonlar tushuniladi.

Bilimlar shakllana borishi barobarida o'zlashtirilishi natijasida shaxs rivojlanadi, yanada barkamollikka intiladi. Bilimlar o'zlashtirilishi barobarida shaxsning nazariy bilimi ulushi "katta bo'lishi yoki kengayishi"ga qaramasdan, u metodik mazmun va mehnat bozori bilan uzluksiz aloqada bo'lib, hayotiy tajribasi yoki amaliyotdan kelib chiqqan holda egallagan bilimlarini hayotga tadbiiq qilishda davom etadi.

Iqtisodiyot jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan, globallashayotgan bugungi informasion jamiyatda ta'lim-tarbiya jarayonlari nafaqat tayyor, hamma tan olgan bilimlarni o'zlashtirish vositasi bo'lishigina emas, balki shaxsning butun umri davomida atrof muhit -

hayot bilan hamnafas holda faol va maqsadli informasion almashinuviga ham xolis xizmat qilmog'i lozim. Bilim asosida to'plangan dastlabki hatti-harakatlar yig'indisiga ko'nikma deyiladi.

Ko'nikma – ong tomonidan “go'yoki” uzluksiz nazorat bo'lishini talab qilmaydigan darajada operatsiya yoki jarayonlarni avtomatlashtirilgan tarzda bajarishdir; bunda operatsiya ongning uzluksiz nazoratisiz, aqliy amallar darajasida avtomatik tarzda bajariladi.

Ko'nikma mashqlar natijasida shakllanadi. Aslida mashq samara bergan yoki me'yoriga yetgan sari ong deyarli nazorat qilmaydi yoki nazorat jarayoni cheksiz kamayadi, inson bunga to'liq ishonch hosil qilgach “go'yoki” e'tibor bermaydi. Bu degani ong nazorat qilmayapti degani emas, balki ong faoliyatni umumiy boshqarishga yo'nalganligidan dalolat beradi. Odatda mashqlar soni, amalga oshirish muddati va ko'lami albatta avtomatlashtirilgan hatti-harakatlarning shakllanish sur'ati (tezligi), jihoz-uskunalarining sozligi, materiallarning sifati, zamonaviyligi, texnologik-yo'riqli xaritalarning to'laqonli va sifatli tuzilganligi, hatti-harakatlar maqsadining aniqligi va uni bajarish uchun motiv mavjudligi, qayta bog'lanish tizimi tezkorligi kabilar ta'lim-tarbiya beruvchi yoki o'rgatuvchining va ta'lim oluvchi yoki o'rganuvchining mahorati singari omillarga chambarchas bog'liqdir. (Jalolov J., 2008).

Quyidagi uslub-qoidalarga rioya etilganda dastlab mashqlar, shu tariqa esa chet tilida kasbiy sohavi ko'nikmalar samarali shakllanadi:

- topshiriq – amallarni bajaruvchilar xotirani jamlagan holda fikran “o'z-o'ziga og'zaki gapirib turish”lari;

- yo'riq (instruktaj) yoki yo'l xaritalari - amallarni bajarayotganda ta'lim-tarbiya beruvchi yoki o'rgatuvchining ko'rsatmasiga garchi bajarish qiyin bo'lsada qat'iy amal qilish, amallarning muhimligini va keyinchalik esa bu borada xato qilmaslikni qalban anglash;

- xato-kamchiliklar, ularning paydo bo'lish sabablari va bartaraf etish usullarni og'zaki tahlil qilish;

- amallarni bajarishning tanlab olingan usul (metod)larini og'zaki yoki yozma asoslash va boshqalar.

Chet til o'quv darslarida berilgan matnlarda pedagogik jarayonni samarali va natijali ta'minlovchi ta'limning interfaol strategiyalari to'laqonli aks etishlarini ta'minlash o'rinlidir. Shu jihatdan qaraganda muallifning sa'y-harakatlari menejment, moliya, biznes, iqtisod va muhandislik fanlari bo'yicha darsliklar ham “Aqliy hujum”, “Keys stadi”, “Modulli texnologiya”, “Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar”, “Fikrlar hujumi”, “Tarmoqlar” metodi, “FSMU” texnologiyasi kabilardan amalda chet til o'qitishda foydalanishga yo'naltirilmog'i shart ekanligini tasdiqlaydi. (A.Nabiyev., A.Bayzakov., & A.Murtazayeva., 2021).

Xulosa

Chet tilida mutaxassislik fanlari bo'yicha tashkil etilayotgan mashg'ulotlar jarayonini kuzatish, mazkur jarayonda talabalarni kasbiy sohaviy bilimlardan xabardor etishga yo'naltirilgan faoliyat mazmunini o'rganish davrida shunday holatning guvohi bo'ldikki, garchi menejment, iqtisod, moliya va boshqa fanlar o'qituvchilari tomonidan tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida talabalarning:

1. Chet tilida kasbiy sohaviy umumiy rivojlanishini ta'minlash;
2. Talabalarning ma'naviy-axloqiy sifatleri hamda dunyoqarashini boyitib borish;
3. Talabalarda chet tilida kasbiy sohaviy malakani hosil qilish kabi holatlarni qaror toptirish ishiga alohida e'tibor berish;
4. Pedagogikani, ma'naviy tarbiyaning o'rni, ahamiyati, talaba-yoshlar tomonidan ma'naviyatni o'rganish zarurati va hokazo masalalarning doimiy ravishda, maqsadga muvofiq yoritib borilishiga nisbatan nazariy yoki amaliy yondashuv amalga oshirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. A.Nabiyev, A.Bayzakov, A.Murtazayeva Calculation of a bar for strength and rigidity based on principle of harmonization of traditional and personally-oriented education methods (on the example of the subject "Resistance of Materials") // *European Journal of Life safety and Stability (EJLSS)*, Special Issue on «New Horizons of Sustainable development: Science, Technology, Innovations», ISSN 2660-9630 SJIF 2021 = 5.63, www. Ejlss. Indexedresearch.org. December 2021. Pages: 143-150.

[2]. Doniyorov R. (2017). Some issues of technical terminology of the Uzbek language. - T.: "Science", p 346.

[3]. Jalolov J. (2008). *Methods of teaching foreign languages*. - T.: "Teacher", -139 p.

[4]. N. Karimova (2021). *Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish modulidan o'quv-metodik majmua b -34*.

[5]. Kadirova, M. T. (2020). *Kompetentlik yondashuvi nazariyasi va uning pedagogik mazmuniga doir qarashlar / — № 43 (333). p.343-345.—URL: <https://moluch.ru/archive/333/74450/> (murojat etilgan sana: 12.04.2024).*